



## O'ZBEK JADID ADABIYOTI VA JAHON IJTIMOIY-ADABIY HARAKATCHILIGI MASALASINING TADQIQ ETILISHI.

To'rayeva Umriniso Rahmatovna,  
f.f.f.d. (PhD), Buxoro davlat universiteti  
niso.2019@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10836776>

### ARTICLE INFO

Received: 15th March 2024

Accepted: 17th March 2024

Published: 19th March 2024

### KEYWORDS

*jadid, jadidshunos, milliy uyg'onish, ma'rifikatparvar, jasorat, ma'rifikat, fidoiylik, "Rusiya musulmonligi"*

### ABSTRACT

*Jadidchilik mohiyatini, jadid adabiyotining yuzaga kelishi, dastlabki namoyandalari faoliyatini o'rganishga kirishgan va ulkan natijalarga erishgan adabiyotshunos olim Begali Qosimovning tadqiqotlari shu yo'nalishdagi ishlar uchun nazariy va amaliy asos vazifasini o'taydi. Shu nuqtai nazardan olimning serqirra faoliyati hamisha adabiyotshunosligimiz e'tiborida bo'lib keldi. Ushbu maqolada adabiyotshunos, qomusiy olim Begali Qosimov o'zbek jadid adabiyoti va jahon ijtimoiy-adabiy harakatchiligi masalasining tadqiq etilishi borasida olib borgan tadqiqotlari qamrab olindi.*

Adabiyotshunos olim Begali Qosimov jadidchilik harakatini keng miqyosda, butun qamrovi, yo'lboschchilari, asosiy g'oyalari, geografik ko'lami, mashhur shaxsiyatları, qrim va qozon tatarlari, ozarbayjon va qozoq adabiyotidagi jadidlargacha tadqiq etishga ham ilmiy-ma'naviy quvvati yetadigan ulkan bir mutaxassis olim edi. O'zbek jadid ijodkorlarini Jamoliddin Afg'oniyan Ismoil Gacpraligacha, Shahobiddin Marjoniyan Mag'jon Jumaboygacha, Norimon Norimonovdan Zaki Validiy To'g'ongacha bo'lgan oraliqdagi adabiy-ijtimoiy qarashlar bilan bemalol qiyoclay olardi. Dunyo olimlari umumjadidchilik yuzasidan mulohaza yuritadigan, ilmiy tadqiqotlar olib boradigan bo'lsa, aslo B.Qosimov nomini, asarlarini chetlab o'ta bilmaydi. Olim kitoblarida, Ayoz Is'hoqiy, Abdurashid Qozi Ibrohimov, bu kabi nomlar va yozgan asarlari tafsiloti bilan uchraydi. "Ismoilbek Gasprali"ga maxsus risola bag'ishladi. Qolaversa, Begali Qosimovning 600 sahifani tashkil etgan «O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi» nomli kitobi, bevosita o'zbek adabiy aloqalari tarixiga oid qimmatli ma'lumotlarni qamrab olganligi bilan nihoyatda ahamiyatli.

Olimning tadqiqotlari XIX asr oxiri XX asrning birinchi yarmiga qadar o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyotiga oid bo'lsa-da, olim birgina o'zbek adabiyoti muammolari bilangina cheklanmadi. O'zi tadqiq etayotgan adiblarning ijtimoiy-siyosiy, estetik qarashlari mohiyatini chuqurroq anglash va ochib berish uchun o'sha davr boshqa qardosh adabiyot vakillari ijodini ham o'rgandi, qiyosan tahlilga tortdi. B.Qosimov ular ijodidagi o'xshash tendensiyalar, g'oya va mavzularga ham to'xtalib, qiyosiy paralellar o'tkazdi, ular asarlaridan iqtiboslar keltirib, tadqiqotlarini faktik jihatdan boyitdi. Jadid ma'rifikatparvarlari ijodini o'zbek

adabiyotshunosligida ilk marotaba akademik ilmiy tadqiqot mavzusiga aylantirdi. Tadqiqotchi olim jadidchilik harakatining otasi sifatida xalqaro miqyosda nom qozongan Ismoilbek Gasprinskiy hayot yo'li, ilmiy, ijodiy faoliyatiga katta qiziqish va hurmat bilan qaradi. Buning isbotini biz olimning Gasprinskiy shaxsi va ma'rifikatparvarlik faoliyatini chuqur o'rganib, u haqdagi qimmatli ma'lumotlarni fanga taqdim etganligida ko'ramiz. Tadqiqotchi olim 2004 yilda, vafotidan biroz avval og'ir xasta bo'lisligha qaramay, Gasprinskiyning bir jildlik asarlar to'plamini o'zbek tilida nashr ettirishga ulgurdi.

Olim tadqiqotlaridan Gasprinskiyning Rusiya jadidchilik harakati rahnamosi sifatida amalga oshirgan ishlari, olib borgan siyosiy faoliyati to'g'risida to'la tasavvur hosil qilamiz. Turkiston o'lkasida XIX asrning oxirlaridan boshlab ko'zga tashlana boshlagan yangilanish harakatlari umumiy jihatlari bilan Gasprinskiy nomiga, u tomonidan chop etilgan «Tarjimon» gazetasiga borib tutashadi. Shu davrdan boshlab XX asrning 20-yillariga qadar faoliyat olib borgan biror turkistonli ziyoli yo'qli, bu nomni bilmasa. Shuning uchun Gasprinskiyning ijodiy faoliyati va maslak-intilishlari bilan tanishish Turkiston jadidchiligi va jadid adabiyotining shakllanish hamda rivojlanish bosqichlarinigina emas, umuman mazmun-mohiyatini anglashda, yo'naliishlarini belgilashda ham benihoya muhim ahamiyat kasb etishini olim izlanishlari orqali isbotladi. Olim Gasprinskiy nomini yuz yil oldin turkiy dunyodagi eng mashhur va hurmatga sazovor nom sifatida e'tirof etadiki, uni Qashqardan Londongacha, Sankt-Peterburgdan Bombeygacha o'zini ziyoliman degan barcha bilishi, u tomonidan chiqarilgan «Tarjimon» gazetasining 1908 yildagi 25 yilligi nishonlanganda hatto, Xitoyning «Tarancha»sidan tabrik telegrammasi kelganligi haqidagi ma'lumotni keltiradi. Xuddi shunday 1910 yilda Fransiyaning juda e'tiborli jurnallaridan biri «Revyu dyu monde musulman» Gasprinskiyning millati oldidagi buyuk xizmatlari uchun nomzodini «Tinchlik borasidagi Xalqaro Nobel Mukofoti»ga tavsiya qilganligi va buni xorijiy mamlakatlardagi juda ko'p matbuot organlari qo'llab-quvvatlab chiqqanligini zo'r hurmat bilan e'tirof etadi. Olim tadqiqotlaridan Ismoil Gasprinskiy vafot etgan 1914 yilning 11sentabrida mashhur olim Narimon Narimonovning: «Millat Ismoilbek kabi qahramonlarini unutsa, o'z hayotini barbod etajaqdir»<sup>1</sup>, degan ma'lumotni keltiradi. Ismoilbek Gasprinskiy tirikligidayoq millatning otasi, rahnamosi degan nom oldi. Uning eng katta xizmatlaridan biri: Rusiya sarhadida yashab turgan, biroq siyosiy jarayonlar natijasida bir-biridan uzoqda yashayotgan, natijada begonalashish darajasigacha yetgan turkiy xalqlarni bir-biriga tanitgani, din va til birligiga erishish yo'lida o'z jonini fido qilganligidir.

Olim Gasprinskiy faoliyatini haqiqiy jasorat va o'rnak sifatida baholaydi. Jadid ma'rifikatparvari Mahmudxo'ja Behbudiy<sup>2</sup> ta'biri bilan aytganda, «Rusiyadagi butun turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo'ldi». Bizga ma'lumki, bu masala o'sha davr chor Rossiyasi tarkibidagi o'z erku huquqi, asriy urf-odatlari, ma'naviy qadriyatlaridan tortib, tili, dini, e'tiqodigacha unutishga mahkum etilgan turkiy xalqlarning eng katta dardi, so'ngsiz armoni edi. Gasprinskiyning Sharq xalqlari ma'naviy hayoti, xususan, maktab-maorifida chinakam inqilob yasagani, «usuli jadid» nomi bilan mashhur bo'lib tarixga kirgan «usuli savtiya»ni boshlab berganligi fikrimizni dalillaydi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Sharqning eng mashhur, taraqqiyat parvar harakatchiligiga - jadidchilikka asos soldi. Gasprinskiy barcha turkiy xalqlarni yagona millat sifatida ko'rishni, ilm-ma'rifikatda ham, haq-huquqini bilishda ham dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan teng ko'rishni orzu qilganligi olim

<sup>1</sup>Косимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик, 2020. – Б. 132

<sup>2</sup> Косимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик, 2020. – Б. 138

tadqiqotlari orqali olib berildi. Gasprinskiy bir ma'rifatparvar sifatida butun aqli-vujudi millatning ravnaqi va muhofazasi yo'liga sarf etdi. Buni tadqiqotchi olim shunchaki mutaassibona bir xayol emas, balki zamonasining ilm-ma'rifatli, iqtisod va siyosatdan boxabar, tarixni va taqdirini teran anglagan, Sharq va G'arbni baravar deb bilgan bir ma'rifatparvar kishining aniq va rejali xatti-harakati sifatida baholaydi. Gasparalini ko'rolmaydigan do'stlari, dushmanlari unga siyosiy ayb qo'yib, turkiy xalqlarni Rossiya hukumatiga qarshi birlashtirishda, yagona turk-tatar davlati tuzishga urinishda ayblaganlar. Buning natijasida ma'lum bir muddat xuddi bizning jadid ma'rifatparvar ziyolilarimiz singari uning nomi, xotirasi avlodlar qalbidan yilib olindi. Yoshlarga uni o'z xalqi, millatining dushmani qilib ko'rsatilganligini olim tadqiqotlaridan bilib olamiz. B.Qosimovning «Maslakdoshlar:Behbudiyl, Fitrat, Ajziy» nomli kitobida M.Behbudiyning Ismoil Gasprinskiy ijodi, uning faoliyatiga juda qiziqqani va u bilan uchrashish istagida bir necha marta Tataristonga borganini aytadi. Biroq Behbudiyl bu baxtga musharraf bo'la olmaydi.

Istiqlol yillarida Toshkentda E.Ablaevning «Ismoil Gasprinskiy – gumanist, prosvetitel, pedagog» risolasi nashr etildi. Shunday tadqiqotlardan yana biri Hoqon Qrimlining «Qrim tatarlarida milliy o'zlik va milliy harakatlar (1905-1916)» (Anqara, 1996) kitobi bo'lib, 2003-2004 yillarda Turkiyada Gasprinskiy «Tanlangan asarlari» uch jildlinining 2 jildi bosmadan chiqqanligi bu ma'rifatparvar siyomoning millat oldidagi xizmatlari e'tirofi sifatida baholanishga loyiq. B.Qosimov izlanishlari natijasida Gasprinskiyning ota-bobolari Yalta-Alupka yo'lida joylashgan Gaspra qishlog'idan ekanligi, Ismoilbek taxallusini shundan olganligini, biroq uni ko'pchilik «Gasprinskiy» nomi bilan tanishi, ilk o'zbek matbuotida uning nomi «Gasprinskiy» deb berilganligini ma'lumotlarida keltiradi. U 1851 yilning 21 martida Gaspradan uncha uzoqda bo'lman, to'rt tomoni tog'lar bilan o'ralgan Ajiko'y (ovchi ko'y — ovchilar qishlog'i)da tavallud topganligi o'zbek kitobxonlariga ma'lum bo'ldi. Gasprinskiyning otasi Mustafobey o'z davrida Kavkaz va Qrim general gubernatori knyaz Vorondovga tarjimon bo'lib ishlagan, sadoqatli xizmati uchun 1853 yilda poruchik unvonini olib, dvoryan martabasiga ko'tarilgan. Biroq oradan ko'p vaqt o'tmay, Krim urushi boshlanadi. Natijada ularning oilasi Bokchasaroyma ko'chib keladi. Ismoilbekni sakkiz yoshida boqchasaroylek Hoji Ismoilning eski makgabiga beradilar. O'n yoshga kirganida esa uning otasi onasi Fotimaning e'tirozlariga karamay, Oqmachit ya'ni Simferopoldagi guberniya gimnaziyasiga olib boradi. U yerda ikki yil o'qigandan so'ng, Voronej (Yol Kermon)dagi ofitserlar harbiy o'quv yurtiga o'tadi. O'n uch yoshida esa Moskvadagi Milyutin gimnaziyasiga o'qishini ko'chiradi. Shu yillarda ba'zi rus ziyolilarida avj olgan buyuk rus millatchiligi Milyutin gimnaziyasida ham kirib kelgan edi. O'sha yerda gimnaziya murabbiylaridan biri yozuvchi M. Katkovning qarashlari yosh Ismoilbekda o'zlikni anglash, millatparvarlik hissini uyg'otadi. Ma'lumotlardan uning hatto Kritda yunonlar bilan urush olib borayotgan turk qo'shiniga ko'ngilli bo'lib qo'shilish uchun do'sti litvalik Mustafa Davidovich bilan Istanbulga bormoqchi bo'lgani, ular Odessa bandargohida qo'lga olinib, orqasiga qaytarilganini bilib olamiz. Natijada Ismoilbek Gasprinskiy 1868 yilda Moskvadagi o'qishini tugatib, Boqchasaroyma qaytadi. O'sha joydagi «Zanjirli» madrasasida rus tilidan dars bera boshlaydi. Jarayonda Gasprinskiy o'z ilmini mustahkamlash, yangicha qarashlarga ega bo'lish maqsadida davrning mashhur yozuvchilaridan D.I.Pisarev, N.G.Chernishevskiy asarlari bilan yaqindan tanishadi. O'qish, ilm olishga bo'lgan ishtiyoqi uni 1872 yil Fransiyaga boshlab keladi. U yerdagi Vena, Myunxen, Shtutgardt shaharlarida bo'lib, Parijda mashhur qalamkash I.S.Turgenev bilan uchrashish baxtiga musharraf bo'ladi. Ma'lum bir muddat Turgenevga

assistent-kotib bo'lib ishlaydi. Fransuz tilini mukammal o'rganib, o'sha yillarda «E'lolnar» idorasida tarjimonlik faoliyatini olib boradi. Shuning barobarida, Gasprinskiy mashhur Sorbonna universitetiga o'qiydi ham. 1876 yili Boqchasaroyga qaytib, «Zanjirli»da rus tili muallimi sifatida ishni davom ettiradi. Shu yili uylanadi, biroq ular uzoq oila bo'lib yashay olmaydilar, ajrashib ketadilar. Gasprinskiy sidqidildan o'qishga beriladi. Qunt va sabr bilan turkiy tilni, tarix va adabiyotga oid ilmlarni o'rganadi. U sharqdagi an'anaviy ta'lim tizimining zamondan orgada qolayotganini, shuning uchun musulmon xalqlari jahon svilizatsiyasidan ancha chetga surilib qolayotganini anglaydi. Shu jarayonda, u o'z millati, ilm-fani ravnaqi uchun Milyutin gimnaziyasidagi o'qitish usulini, Sorbonna universitetida ko'rganlarini musulmon maktablariga ko'chirish, har bir maktab, madrasa uchun, garchi u biroz mashaqqatli bo'lsa ham, dastur ishlab chiqish lozimligi haqida o'ylaydi. Diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlar ham teng o'qitilishi kerakligi, ikkinchi tomondan, o'qishni nazorat qilish shakllari, bilimni baholash mezonlarini ham ishlab chiqish haqida bosh qotiradi. Atrofdagilar Gasprinskiyni kofirga chiqaradilar. Tahdidlar, xo'rلانishlar kuchayib, Ismoilbek yakkalik qiladi va yon berishga majbur bo'ladi. Ish yo'nalishini o'zgartiradi. 1878-1884 yillarda shahar boshlig'i vazifasiga saylanadi. 1882 yilda Qozon tatarlaridan mashhur millioner Oqchurinning qizi Zuhraxonimga uylanadi. Ular olti farzand tarbiya qiladilar. Olimning ta'kidlashicha, «Yildiz» jurnalining 1990 yildagi ma'lumotiga ko'ra: «Gasprinskiy farzandlaridan Diloraxonim va Ismoil sog'-salomatlar. Hozirda Toshkentda yashaydilar», degan ma'lumotni keltiradi.

B.Qosimov Gasprinskiy faoliyati bo'yicha olib borgan izlanishlarida uning 1881 yilda «Rusiya musulmonligi» kitobini e'lon kilgaii, unda ko'tarilgan eng muhim masalalardan biri Rossiyaning o'z qo'l ostida yashovchi musulmon fuqarolariga munosabati masalasi ekanligi, bu bevosita qardosh mamlakat farzandining barcha musulmonlar va ularning taraqqiysi kurashganligiga guvoh bo'lamiz.

Adabiyotshunos olim jadidchilik harakatining otasi Ismoilbek Gasparali merosini chuqur o'rganib, bu jarayonda Behbudiy boshlab bergen yo'lni munosib davom ettirdi. Gasparinskiyni o'zbek kitobxonlariga tanitishda jonbozlik ko'rsatdi.

#### Adabiyotlar:

1. Qosimov B. Dolimov U. Ahmedov S va boshqalar. Vatan va millat muqaddasdir. – T.: O'qituvchi, 1986. 0,1 b.t
2. Qosimov B. Jadidchilik, - Milliy uyg'onish va o'zbek filologiyasi masalalari. –T., 1993 yil, 0,4 b.t
3. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik –T.: Ma'naviyat, 2002, 397 b
4. Raxmatovna T. U., Zaripovna R. R. Study of Begali Kasimov's Activity in Literary Studies and Scientific Biography of the Scientist //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 25. – C. 3454-3459.
5. Toraeva U. R. Definition and research methods of Uzbek modern literature //Current research journal of philological sciences. – 2021. – T. 2. – №. 10. – C. 104-107.
6. Turaeva U. R. Determination of characteristics of uzbek jadid schools and literature //наука и инновации в xxi веке: актуальные вопросы, открытия и достижения. – 2021. – C. 154-156.
7. Rakhmatovna T. U. UDC: 82.09. 575.1 Literary critic begali kasimov is a researcher of modern literature //scientific reports of bukhara state university. – C. 114.

8. Rakhmatovna T. U. Research of heritage of representatives of uzbek literature of the period of national renaissance //principal issues of scientific research and modern education. – 2022. – Т. 1. – №. 7.
9. TORAYEVA U. The Tatar press and Turkestan Jadidism In The researches of Begali Kasimov //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
10. Nafosat, U., & Quvvatova, D. (2019). An untraditional description style in the epos of Ikrom Otamurod. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 8(5 Special Issue 3), 396-399.
11. Urokova, N. (2019). GENRE RESEARCH IN UZBEK POEMS OF RECENT TIMES. Theoretical & Applied Science, (8), 57-59.
12. Urokova, N. (2022). MASNAVI IN MODERN UZBEK PROSE. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(3), 63-65.
13. Yorievna, U. N. (2022). Masnavi Genre in Uzbek Classical Poetry: Nature, Genesis, Features. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(10), 67-70.
14. Yoriyevna, U. N. (2023). THE ORIGINALITY AND GENESIS OF ANIMAL SYMBOLISM IN POETRY. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 18, 20-23.
15. Уракова, Н. (2019). Стиль писателя в современных узбекских поэмах. International scientific review, (1 (41)), 26-28.
16. Urokova, N. (2019). GENRE RESEARCH IN UZBEK POEMS OF RECENT TIMES. Theoretical & Applied Science, (8), 57-59.
17. O'roqova, N. (2019). So'nggi yillar o'zbek dostonchiligidagi ijodkor uslubi va individualligi (I. Otamurod va U. Qo'chqor dostonlari asosida). Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi, Qarshi, 2019. B, 21
18. Yoriyevna, U. N. (2023). RELATIONSHIPS BETWEEN HUMANS AND ANIMALS. Confrencea, 8(1), 123-126.
19. Sodiqova, D. (2021). DT SODIKOVA ESTIMATION OF THE RESULTS OF THE USE OF TRANSPEDICULAR OSTEOSYNTHESIS IN THE TREATMENT OF UNSTABLE DAMAGE OF THE BREAST AND LUMBAR SPINE DEPARTMENTS. *Архив исследований*.
20. Sodiqova, D. (2021). Sodikova DT EFFICIENCY OF TREATMENT IN DISEASE OF MEALOBLAST ANEMIA. *Архив исследований*.
21. Gulyamova, S., Gadaev, A., Zakirkhodjaev, R., Kalandarov, D., & Sodikova, D. (2020). Increasing the Effectiveness of Public Information on Risk Factors and Self-Control of Hypertensive Disease in Primary Link. *Indian Journal of Forensic Medicine & Toxicology*, 14(4).
22. Sodikova, T. D. (2021). Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry. *Middle European Scientific Bulletin*, 8.
23. Садикова, Д. (2021). MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
24. Садикова, Д. (2021). Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
25. Садикова, Д. (2021). Muslihabegim Miskin-XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).
26. Sodiqova, D. (2023). WAYS AND PROBLEMS OF USING THE EXPERIENCE OF DEVELOPING COUNTRIES IN THE DEVELOPMENT OF ELECTRONIC COMMERCE. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(3), 49-53.

27. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE VERSES OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 372-380.
28. Rakhmuddinovna S. Z., Mahliyo B. FALAK NILUFARLARIDIN CHASHMAYI MEHR GAR O'LDI PAYDO //E Conference Zone. – 2022. – C. 93-96.
29. Rahmuddinovna S. Z. et al. OMINA SHENLIKO 'G 'LINING" VIJDON AZOBI" ASARIGA TAQRIZ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 33. – №. 2. – С. 90-93.
30. Rakhmuddinovna S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 112.
31. Rakhmuddinovna S. Z. The Study of the Problems of Sufism and Art in Navoi Studies //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 258-262.
32. Raxmuddinovna S. Z., Bahromjonovna H. Z. USMON AZIM-ROST TUYG'ULAR KUYCHISI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2023. – T. 26. – №. 1. – C. 3-6.
33. Rakhmuddinovna S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood...) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 31-36.
34. Rakhmuddinovna S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 142-146.
35. Dilbar K., Rakhmuddinovna S. Z. PROMOTER OF MUSLIM CLASSICAL LITERATURE" FORTY HADITH" //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 9.

INNOVATIVE  
ACADEMY